

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>O.M.Normatov</b>	
O'zbekistonning ma'muriy-hududiy holati rayonlashtirish o'tkazilishi arafasida .....	229
<b>Sh.T.Tursunkulova</b>	
G'azzoliyning go'zal axloq to'g'risidagi qarashlari.....	235
<b>I.M.Azimov</b>	
O'zbek-lotin alifbosini yaratish uchun harakatlar .....	239
<b>Sh.D.Ismoilov</b>	
Talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shakl va metodlari .....	247
<b>A.A.Qambarov</b>	
Marg'ilonlik "Katta ashula" sohiblari.....	251
<b>M.Kamalitdinov, T.Mavlonov</b>	
Sharsimon qobiq dinamikasi qisman suyuqlik bilan to'ldirish.....	257
<b>A.I.Saminov</b>	
Oksymoronning semantik xususiyatlari .....	261
<b>I.X.Mavlonov</b>	
Milliy yuksalish konsepsiyasini amalga oshirishning nazariy-metodologik asoslari .....	266
<b>B.X.Baydjanov, Z.I.Muhammadiyeva</b>	
O'quvchilarda mantiqiy kompetentlikni shakllantirish usullari.....	272
<b>B.X.Baydjanov, M.R.Maxkamov</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qilish qobiliyatlarini shakllantirish .....	276
<b>Z.M.Abdullaev</b>	
Asl turkiy antroponimlar va ularning tarixiy-etimologik shakllanishi .....	280
<b>G.Z.Abduraxmonov</b>	
Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida g'oyaviy birlashuv zaruriyatini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari.....	284
<b>O.A.Ashurova</b>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lif mutaxassislarida ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari .....	288
<b>Sh.Ismoilov</b>	
Nogironlik tushunchasining modellari.....	293
<b>D.O.G'afurov</b>	
Yangi O'zbekistonda oila munosabatlarining huquqiy asoslari hamda uning jamiyat ma'naviy rivojida tutgan o'rni.....	300
<b>D.B.Niyazov, M.M.Niyazova, Sh.M.Saydaxmedov, B.Z.Adizov, M.Y.Ismoilov</b>	
Nitron tolasi chiqindisi asosida F-seriyali flokulyantlarni olish .....	303
<b>D.S.Ergasheva</b>	
O'zbek xalq ertaklari orqali vatansevarlik va do'stlikga o'rgatishning pedagogik strategiyasini ta'nishlash.....	308
<b>G.M.Ravshanova</b>	
Axborotlashgan jamiyatda ta'lif va ta'lif axborotlashuvining dialektik aloqadorligi muammosini o'rganish .....	313
<b>O.O'.Xolmatova</b>	
O'zbek xalq maqollarida miqdor konseptining kognitiv xususiyatlari.....	320
<b>F.A.Tashpulatov</b>	
O'quvchi yoshlarni basketbolga o'rgatish texnikasining usullari.....	324
<b>S.G'.Shomurodova</b>	
Nikoh urf-odatlari bilan bog'liq kiyimlarning to'y qo'shiqlaridagi poetik talqini .....	329
<b>F.N.Usmonov</b>	
Zamonaviy kompyuter etikasi muammolari .....	334
<b>E.Sh.Jumayeva, U.U.Ruzmetov, Z.A.Smanova</b>	
Suvdag'i og'ir metallarni aniqlash usullari va og'ir metallarning organizm hayotiy faoliyatiga zaharli ta'siri .....	340
<b>S.Sh.Do'saliyeva, V.U.Xo'jayev</b>	
Allium karataviense o'simligi takibidagi flavonoidlar taxlili.....	349

## G'AZZOLIYNING GO'ZAL AXLOQ TO'G'RISIDAGI QARASHLARI

### ВЗГЛЯДЫ ГАЗАЛИ НА НРАВСТВЕННУЮ КРАСОТУ

#### GHAZALI'S VIEWS ON MORAL BEAUTY

**Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna**

– Sharof Rashidov nomidagi, Samarqand davlat universiteti, falsafa va milliy g'oya kafedrasi dotsenti

#### **Annotatsiya**

*Maqolada, Abu Homid G'azzoliyning falsafiy qarashlari tahlil qilindi, jumladan, uning inson va uning ma'naviy kamoloti masalalariga bag'ishlangan "Ey, farzand", "Kimyoi saodat" asarlari o'rGANildi.*

#### **Аннотация**

*В статье проанализированы философские воззрения Абу Хамида Газали, в том числе его произведения «Эй, фарзанд» и «Кимёи Саодат», посвященные вопросам человека и его духовной зрелости.*

#### **Abstract**

*The article analyzes the philosophical views of Abu Hamid Ghazali, including his works "Ey Farzand" and "Kimyoi Saodat" dedicated to the issues of man and his spiritual maturity.*

**Kalit so'zlar:** Tasavvuf, go'zallik, odob, axloqiy go'zallik, insoniy fazilat, ma'naviy kamolot.

**Ключевые слова:** Суфизм, красота, манеры, нравственная красота, человеческая добродетель, духовная зрелость.

**Key words:** Sufism, beauty, manners, moral beauty, human virtue, spiritual maturity.

### **KIRISH**

Inson mohiyati uning ma'naviy kamoloti, intellektualligi, jismoniy va ruhiy sog'lomligi, o'z-o'zini anglashi, bilishi, ijtimoiy xususiyatlari o'z davrining ko'plab olim u-fuzalolarini qiziqtirib kelgan. Insonning kamoloti, uning ma'naviyati, axloqiyligi masalalari tasavvuf allomalari asarlaridan ham keng o'rin olgan. Tasavvuf ta'llimotida insonning kamoloti haqida "ma'naviy", "axloqiy" konsepsiylar ishlab chiqilgan. Insoniy go'zalliklar haqida chuqr mulohazalar qoldirgan allomalardan biri G'azzoliydir.

Tasavvuf allomasi Abu Homid G'azzoliyning inson to'g'risidagi qarashlari o'z davrida ham, hozirgi kunda ham qadriyatli, ahamiyatlidir. G'azzoliy 1058-yilda Eronning Xuroson viloyati, Tus shahrida dunyoga kelib, 1111-yilda shu yerda vafot etgan. Teran bilim sohibi, yetuk inson, yirik asarlar muallifidir. Darhaqiqat, "islom olami, butun dunyo 900 yildan buyon hazrat G'azzoliy asarlarini o'rGANIB kelmoqda, bu asarlar turli tillarga tarjima qilingan. Sharq mamlakatlaridan tashqari Yevropa, hatto Amerikada u zot nomida institutlar ochilib, hayoti va ilmiy faoliyatiga bog'liq tadqiqotlar olib borilmoqda. G'azzoliy kabi zotlarning nufuzli asarlari har bir asr, har bir jamiyat uchun har doim faqat foyda keltiradi.[1.2]

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

G'azzoliyning hayoti va faoliyati, asarları, falsafiy qarashlari ko'plab olimlar tomonidan chuqr o'rGANILGAN. Mamlakatimizda Najmuddin Komilov, Bo'riboy Ahmedov, Aloviddin Mansur, Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Mubashshir Ahmad, Miraziz A'zam, Abduqodir Zohid, Abdulla Sher, Poyon Ravshan, Sayfiddin Raf'iddin, Yo'ldosh Eshbek, Rashid Zohid, Mahkam Mahmud Andijoni va boshqa olimlar izlanishlarida tadqiq etilgan. Tarjimonlar, faylasuf, adabiyotshunos, tarixchi olimlar tomonidan uning quyidagi asarları keng o'rGANILGAN, "Odobus so'fiyya", "Al-Risola al-Laduniyya", "Al-Arba'un fi usuluddin", "Mishkotul Anvor", "Ihyou ulumud-din", "Minhojul Obidiyn ilal Jannati", "Javahirul Qur'on va duraruhu", "Miyzonul Amal" va b.<sup>2</sup>

G'azzoliyning hamma kitoblari o'ta ahamiyatlis hisoblanadi. Ammo ularning ichida "Ihyou ulumud-din" (din ilmlarini jonlantirish) kitobi alohida e'tibor qozongan kitobdir. G'azzoliy "Ihyou ulumid-din" kitobida kishining shaxsiy kamolotida tasavvufning rolini bayon qilish bilan birga insoniy munosabatlari, ijtimoiy lashuv, ijtimoiy konfliktlar, shaxs axloqi va odobi kabi masalalarni ham atroficha bayon etgan.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Insonning go'zal axloqiy xususiyatlari to'g'rilik, mehnatsevarlik, marhamat va yumshoq ko'ngillilik, hamdardlik va saxiylik, odob va hayo, do'stlik va qardoshlik, sabr, shukr, kattalarga hurmat, kichiklarga muhabbat, haqiqat, adolat, omonatlichkeit, va'daga vafo, tavba hisoblanadi.

G'azzoliy asarlarida insoniylik hikmatlari, go'zal fazilatlarini tarannum etib, inson o'z hayoti davomida qator odob-axloq, xulq-atvor qoidalarini shakllantirishi lozimligini aytib, inson odobining bir necha ko'rinishlarini aytib o'tadi. Xususan, alloma, o'zining "Ey farzand" asarida axloq-odobni tizimli tarzda ifodalab beradi. Ya'ni, kiyinish odobi, eshik ochish, hojatxona odoblari, masjidga borish, namoz o'qish, masjiddan chiqish va uyiga yoki ish joyiga kirish, muomala qilish va boshqa. odoblarni tizimli tarzda belgilab olib, ularning har biriga alohida e'tibor qaratadi.

Rajab, sha'bon va ramazon oylariga xos odoblari, qo'l, oyoq, til, quloq va tanosil a'zolari odoblari, qo'ni-qo'shni haqlari, muhtojlarning ehtiyojlarini qondirish, bozor-o'charga borish, qarz olish-berish, olimlarni, oriflarni, murshidlarni ziyorat etish, ularning majlislarida qatnashish odoblari ham bor.

Kiyinish, yurish-turish, kimlarga qanday qarash, kimlarga qaramaslik, qanday suhbatlashish, mehmon qabul qilish va mehmon bo'lish odoblari, taomlanish va taomlantirish odoblari, qir-adirda, tog'u toshda va istirohat maskanlarida bo'lish odoblari, safar va musofirlik, xasta ziyorati, er-xotin munosabatlariga tegishli odoblarni har birini batafsil, keng ma'noda izohlab beradi.

Shuningdek, bayramlar, marosimlar, urf-odatlarga xos odoblari, qul, oyoq, til, quloq, tanosil a'zolari odoblari, qo'ni-qo'shni haqlari, muhtojlarning ehtiyojlarini qondirish, bozor o'charga borish, qarz olish-berish, olimlarni, oriflarni, murshidlarni ziyorat qilish, ularning majlislaridagi odoblarni bayon etadi. Odamlarning kiyinishi, yurish-turishi, kimlarga qanday qarash kerak, kimlarga qaramaslik kerak, qanday suhbatlashish, mehmon qabul qilish va mehmon bo'lish odoblari, ovqatlanish va ovqatlantirish odoblari, sayohat qilish odoblari, musofirchilik, kasaldan hol so'rash odoblari, er-xotin odoblari to'g'risida ajoyib, go'zal ta'rif va amalga oshirish zarur bo'lgan odob, xulq-atvor qoidalarini ishlab chiqqanlar.

Moddiy farovonlikka erishish ham aslida ma'naviy jihatdan boyish bilan birga sodir bo'lsagina baxt-saodat keltiradi. Boshqacha aytganda, moddiy farovonlikdan maqsad ma'naviy yuksalish, insoniylik mohiyatini namoyon etib, ezzulik qonuniga asoslangan jamiyatni barpo etishga erishmoqdir. Abu Nasr Farobiy hazratlari qayd etganiday fozil, dono, saxiy insonlar qancha ko'p bo'lsa, jamiyat ham shuncha ko'p taraqqiy etadi, johillik belgilari hisoblangan hirs, hasad, pastkashlik, fitna, yolg'on, tilyog'lamalik kabi salbiy xislatlar kamayib, har bir odamning baxtli hayot kechirish imkoniyati ortadi. [2.3]

Odob nima? Odob - tarbiya, go'zal axloq, nazokatlichkeit demakdir.

Hayo - uyalish, Allohdan qo'rqib yomon ishlardan saqlanish, tortinish demakdir.

Har bir muslimonda bo'lishi kerakli eng muhim narsalardan biri odob va hayodir. Agar odamlarda odob va hayo bo'lmasa, Allohdan qo'rqish va ijtimoiy nazorat bo'lmasa, balki olam tartiblari buzilib ketardi. Har bir kishi qilgan xato va gunohlaridan uyalmasa, odamlardan tortinmasa, Allohdan qo'rmasa, yomon va nojo'ya ishlarni to'xtatib bo'lmast edi. U chog'da mamlakatlar yovuz odamlar qo'liga o'tib, tinchlik va osoyishtalik tugar, hayotning lazzati qolmasdi.[3.9]

Axloq nima? Axloq - hayotdan yoki o'qish-o'rganish va oila tarbiyasi bilan erishilgan ruhiy holat demakdir. So'zlarida, ishlarida turli holat va harakatlarida durust bo'lgan kishiga axloqli inson deyishadi. Payg'ambarimiz bir hadislarida: "Xulqi yaxshi bo'lgan muslimmon imon jihatidan eng mukammal muslimondir", - degan edilar. [3.2.] Ko'plab manbalarda sufiylik bu go'zallikdir, sufiy – go'zal insondir deyiladi. Tarixda go'zal axloqli deya e'tirof etgan tasavvuf allomalari ham bo'lishgan. Masalan, Imomi A'zamning zamondoshlari u kishining go'zal xulq va fazilatlarini tan olishgan, eng chiroylu xulq Imomi A'zamning xulqidir, deb e'tirof qilganlar. Imomi A'zam tadbirkor bo'lgan, shuning ortidan mehnat qilib, boy-badavlat bo'lib yashagan, yon-atrofdagilarga sahovatlar ko'rsatgan. Doimo toza-ozoda, pokiza va go'zal kiyimlarda chiroylu bo'lib yurgani to'g'risida ma'lumotlar berilgan. [4.47]

Albatta, "komil inson haqida gap ketganda axloq-odob tamoyillariga urg'u berilishi bejiz emas. Nainki, insonning insonligi, uning ongli mavjudot sifatida hayot kechirishi va turmush tarzi,

tabiat, jamiyat va odamlarga bo'lgan turli-tuman munosabatlarida birinchi o'ringa uning axloq-odobi o'tishi va ana shu insoniy axloq chegarasida turib muomala qilishi uning tarixan o'z axloqiy tushuncha va tasavvurlarini boyitib, kengaytirib va rivojlantirib kelganidan dalolat beradi". [2.26]

G'azzoliy shunday deydi: "Ayblarni yashir, birovning aybini yuziga solma. Farzldandan boshqa qilgan barcha ibodat va yaxshiliklaringni birovga aytma, maxfiy qolishiga harakat qil. Dunyo ishlarini oxirat ishlaridan afzal etma. Hech kimni kamsitib, ko'ngliga ozor berma. Barcha insonlarni yaxshi ko'rishga harakat qil", "Alloh aqldan so'ng nafsn yaratdi, taniga esa jaholatni kiygizdi. Shahvatni ko'ziga berdi. Ochko'zlikni tomog'iga berdi. Yolg'oni tiliga berdi. O'zini xira ko'rmoqni (xudbinlikni, manmanlikni, kerilishni) ko'ksiga berdi. Ta'magirlik va hirsni qorniga berdi. Zulmni beliga berdi. G'azabni qo'liga berdi. Nopoklikni tanosil a'zolariga berdi. Fasod (fisq, g'avg'o, buzg'unchilik)ni oyog'iga berdi. Shubhani belidan quysisiga, shirkni belidan yuqorisiga berdi." [2.10] Demak, inson dilozor, maqtanchoq, g'iybatchi bo'lmasligi kerak. Alloma, inson tanasi a'zolari misolida birinchidan, mazkur a'zolarning funksiyasini ko'rsatib bersa, ikkinchidan, o'sha a'zolarning me'yordan oshish holatlarini ifodalab bergen. Shunday xunuk vaziyatlar bo'lmasligi uchun insonga aql berilgan.

Inson qilayotgan ishida aqlga tayanilishi xayrlidir, ya'ni yaxshidir. Aqlga nomuvofiq amalga oshirgan ishlardan yaxshilik chiqmaydi. Aqlga zid harakat qilgan - nafsi ergashgandir. Inson uchun eng buyuk dushman - nafsdir. Nafs, yomonlikdan omon bo'lmoq - aqlga qulq solmoq, aqlning yaxshi ko'rsatmasiga ko'ra harakat etmoqdir. Bu holga ko'ra Allah kimga aql bergen bo'lsa, imon va hayo ham u bilan bиргadir. Kimga aql berilmagan bo'lsa, unda imon ham, hayo ham bo'lmaydi, deydi alloma.

G'azzoliyning inson nafsi to'g'risidagi qarashlari ham ahamiyatlidir. Inson nafsin tiyishi uchun nimalar qilishi kerakligini quyidagicha izohlaydi: "Nafs insondagi qoralangan sifatlarni jamlovchi asldir, ya'ni negizdir. Ular aytadilar: "Nafsga qarshi kurashish va mudom uni sindirishdan boshqa chora yo'q". Payg'ambar alayhissalomning mana bu so'zlari ham bunga ishoradir: "Ichingdag'i nafsing dushmaningning eng yomonidir" nafs yuqorida zikr etilganidek, bir ilohiy ne'matdir. Inson nafsi uning o'zidir. Lekin u holatining turlanishiga qarab har xil sifatlanadi. Agar nafs Haq amriga bo'ysungan holda shahvoniy hurujlarni yengishga qodir bo'lsa, u nafsi mutmainna, ya'ni xotirjam-sokin nafs, deb nomlanadi." [2.15]

Yomonlikka buyuruvchi nafs, deganda avvalgi ma'nodagi nafs, deb tushunilishi joiz bo'ladi. Demak, birinchi ma'hodagi nafs qattiq yomonlangan va ikkinchi ma'hodagi nafs esa maqtalgandir. Chunki ikkinchisi insonning nafsi, ya'ni insonning o'zidir va Allah taoloni hamda U yaratgan narsalarni tanib-biluvchi insonning haqiqatidir. Shahvat, g'azab, zohiriya va botiniy hissiyotlar hayvonlarda ham bor. Misol uchun bir qo'y ko'zi bilan bo'rini ko'rgach, albatta uning adovatini qalbi bilan his etadi va undan qochadi.

G'azzoliyning "Kimiyo saodat" asarida mushkul masalalarga amal qiluvchilar mas'ud - baxtli va sharofatli insonlar haqida yozilgan. Bu asar insonlarni maqbul yo'lg'a kirgizuvchi, mazmunli va nozik, teran fikrli, ko'pma'holi, zarif va latif hikoyalardan iborat. Unda odamlarning zalolat zillati va xijolat zulmatidan saqlanib yurishlari to'g'risida yozilgan. Insonlarni "yaxshilikka yo'llash ham yaxshilikdur" (hadis), aynan ushbu asarda insonlarni yaxshilik qilishga, o'zlaridan yaxshi nom qoldirishga, hayot va o'lim, insonning o'zini bilishi, anglashi kerakligi aytildi. Inson o'zini angolmas ekan, u boshqani tushunmasligini ta'kidlaydi.

Har kishining izzati va sharofati ilm birla va qudrat birla va yo himmat birla va yo jamoli va surati birla bo'lur. Ba'zi odamning ilmiga nazar qilsang andin johilroq kishi yo'qdur. Agar dimog'ini bir tomiriga xalal yetsa, xataru halokdadur, va aning iloji nimadur? Va agar aning quvvati va qudratiga boqsang, andin ojizroq nimarsa yo'qdurkim, agar pashsha va ari nish ursa uyqusiz va beqaror bo'lur. Agar ani himmatiga nazar qilsang, taomidin bir no'xat chog'lilq narsaga zarar yetsa, ranjur bo'lur. Va agar jamoli va suratiga nazar qilsang mushkuldurkim, ichida bir najosat. Agar ikki kun o'zini yuvmasa badbo'ylikdin rasvo bo'lur. odam bu olamda bisyor nuqson va ojizlik va nokaslikda va aning bozori ro'zi qiyomatdurdur. Agar kimiyo saodatni ko'nglida tutib amal qilsa, hayvonlik martabasidin farishtalik martabasiga yetar. Va agar dunyoga ko'ngil tutsa, qiyomat kuni it va to'ng'iz ul kishidin afzaldur, deb aytadi. [6.36] Ko'rinib turibdiki, alloma insoniy hikmatlar va go'zal insoniy fazilatlar haqida asarlar yozib, o'zidan kelajak avlod uchun katta ma'naviy meros, bebafo tarixiy yodgorlik qoldirgan.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda mamlakatimiz ilm-fanida mutafakkir allomalarimiz hayoti va faoliyati chuqur o'rganilayotgan bir davrda, tasavvuf allomalarining inson ma'naviy kamoloti haqidagi qarashlarining o'rganilishi tarixiy ahamiyatga ega. Inson ma'naviy, axloqiy go'zalligi haqida juda chiroyli hikmatlar bitgan tasavvuf allomasi G'azzoliyning qarashlari ham shular jumlsadidandir. Ajdodlarimiz merosini o'rganish va uni asl mohiyatini tushunish kelajak avlod uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Maxmudov T. Komillik asrorlari: Hayotiy hikmatlar. T.: -Adolat, 2006. 96-b.
2. G'azzoliy, Abu Homid. Ey farzand. Imom G'azzoliy haqlarida bir necha so'z. So'z boshi. (Yo'ldosh Elbek tarjimasi.) Toshkent.: -Movarounnahr. 2005. – 54 b.
3. Abdurahmon Qoya. Islom axloqi. Toshkent.: -Movarounnahr, 1997. -40 b.
4. Alouddin Mansur. Imomi A'zam – Buyuk Imomimiz. -Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1999. 47-b.
5. G'azzoliy, Abu Homid. Kimyoи saodat. -Toshkent.: Adolat, 2005. -223 b.
6. Tursunkulova Sh. Tasavvuf ilmida inson go'zalligi paradigmasi. SamDCHTI, Samarqand. 2023. 105-b.